



## SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE TOPONYMICS OF THE MODERN KOKAND CITY

**Muhsinjan Kodirov**

*Doctoral student*

*Fergana State University*

*Fergana, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** toponymy, geographical object, Kokand city, decision, street, toponymic commission, theater, charter, community assembly, personal names, archive, H. Mavlonkulov.

**Received:** 28.10.24

**Accepted:** 30.10.24

**Published:** 01.11.24

**Abstract:** In this article, during the years of independence, the works carried out in the city of Kokand regarding the replacement of the names of geographical objects, streets and various other objects or naming them with the names of individuals are analyzed together with their legal basis. In this, the main attention is focused on cases related to personal names.

## ZAMONAVIY QO‘QON SHAHRI TOPONIMIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Muhsinjon Qodirov**

*tayanch doktorant*

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Farg‘ona, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** toponimika, geografik ob‘yekt, Qo‘qon shahar, qaror, ko‘cha, toponimik komissiya, teatr, nizom, mahalla fuqarolar yig‘ini, shaxs nomlari, arxiv, X.Mavlonqulov.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Qo‘qon shahrida amalga oshirilgan geografik obyektlar, ko‘chalar va boshqa turli ob‘yektlarning nomlarining almashtirilishi yoki shaxs nomlari bilan atalishi borasida amalga oshirilgan ishlar qonuniy asoslari bilan birgalikda tahlil qilingan. Bunda asosiy e‘tibor shaxs nomlari bilan bog‘liq holatlarga qaratilgan.

## ОСОБЕННОСТИ ТОПОНИМИИ СОВРЕМЕННОГО ГОРОДА КОКАНДА

**Мухсинжан Кодиров**

*Докторант*

*Ферганского государственного университета*

*Фергана, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** топонимия, географический объект, город Коканд, решение, улица, топонимическая комиссия, театр, устав, общественное собрание, личные имена, архив, Х. Мавлонкулов.

**Аннотация:** В данной статье в годы независимости анализируются проводимые в городе Коканде работы по замене названий географических объектов, улиц и различных других объектов или присвоению им имен физических лиц, а также их правовые основе. При этом основное внимание сосредоточено на случаях, связанных с личными именами.

---

**KIRISH**

Mustaqillik yillarida mamlakatimizning hamma ma'muriy-hududiy birligida toponimik jihatdan o'zgarishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shulardan biri bu qadimiy va navqiron Qo'qon shahrida ham shunday o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, Sovet Ittifoqi davrida deyarli barcha ko'cha, joy va ob'yektlarning nomlari rus tilidagi turli nomlar bilan atalgan edi. Mustaqillik yillarida faoliyatini boshlagan geografik ob'yektlarga nom berish bilan shug'ullanuvchi "Toponimik komissiya"lar har bir hududning tarixi, kelib chiqishi, hudud aholisining urf-odatlarini, kasb-hunarlarini bilan bog'liq bo'lgan turli nomlarni ilgari surdilar. Avvalo, geografik ob'yektlar nomlarini almashtirish o'sha hudud aholisining tashabbusi yoki roziligi bilan amalga oshirilgan.

**ASOSIY QISM**

1990-yillarning ikkinchi yarmida Qo'qon shahrida amalga oshirilgan Toponimiya sohasidagi o'zgarishlarni tahlil qilib chiqsak. Qo'qon shahar hokimining 1995-yil 25-apreldagi 94-sonli qaroriga ko'ra shahar hududida joylashgan "Oktyabr" nomli kinotetar va K.Libknext nomli ko'chalari qayta nomlandi [1; 207]. Unga ko'ra "O'zbekiston Respublikasidagi ma'muriy – hududiy birliklar, aholi punktlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fizik-jug'rofiy, geologik va boshqa toponimik ob'yektlarga nom berish hamda ularning nomi o'zgaritirish to'g'risidagi Nizom"ning 13-moddasiga hamda shahar jamoatchiligi, kin ova video bo'limi ma'muriyati jamoasi va toponimiya komissiyasining "Oktyabr" nomidagi kinoteatrga asli Qo'qon shahrilik taniqli san'atkor, xalq artisti, Davlat mukofoti laureate Nabi Rahimov nomini berildi [1; 208]. Shuningdek, ushbu qarorga muvofiq, respublikamizdagi eng keksa matbuot nashrlaridan biri bo'lgan shahar hokimligi "Qo'qon sadosi" ro'znomasining dastlabki soni chiqqan boshlaganligining 80 yil to'lganligi munosabati bilan shahar hududida joylashgan K.Libknext ko'chasiga "Qo'qon sadosi" ro'znomasi nomini berish taklifi qabul qilingan [1; 207].

Qo'qon shahar hokimi X.Mavlonqulovning 79-sonli 24-aprel 1996-yil kuni qabul qilingan qaroriga muvofiq shahar hududida yana bir nechta toponimiya sohasida o'zgarishlar amalga oshirildi. Unga ko'ra, Babushkin nomli ko'chaning nomi Chorchinor, Ernest Kujelo nomli ko'cha nomi esa Temur Malik ko'chasi deb ataladigan bo'ldi [2; 235-236].

1997-yil 31-yanvar kuni Qo‘qon shahar hokimining “Shahardagi ayrim ko‘chalarni nomlarini o‘zgartirish haqida” 25-sonli qarori qabul qilindi va unda ham 26 ta ko‘cha nomlari boshqa nomlarga almashtirilgan [3; 241-242].

1-jadval.

Qo‘qon shahri ko‘chalarining toponimikasi (31.01.1997. 25-sonli qaror) [3; 241-242].

T/R	Eski nomi	Yangi nomi
1	Avangard	Xakimxon to‘ra
2	Barnaul	Fasohat
3	Belorussskaya	Kamolot
4	Gastello	Risqulibek
5	Korolenko	Xumoyun
6	Levanevskiy	Latofat
7	Rabochaya	Shijoat
8	Suxumi	Orzu
9	Shorsa	Aynul hayot
10	Spartak	Shiroq

Yuqoridagi nomlarni tahlil qilsak, almashtirilgan nomlar eski atalishiga nisbatlab olingan, ya’ni avvalgi nomiga ma’nodosh bo‘lgan so‘zlar yoki shaxs nomlari milliylikimiz va tariximizdan kelib chiqqan holda boshqa bir shaxs nomi bilan almashtirilgan.

Zamonaviy Qo‘qon shahri tarixida eng ko‘p toponimik o‘zgarishlar 1990-yillar oxiro hamda 2000-yillar boshida amalga oshirilgan. Misol uchun, Qo‘qon shahri hokimining 4-mart 1997-yil kuni qabul qilingan 48-sonli qarorida ham 12 ta ko‘cha nomlari boshqalariga almashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin [4; 186-187]. Ushbu qaror asosida shahardagi ma’naviyatimizga yot bo‘lga bir nechta ko‘chalar nomlari o‘zlarining tarixiy nomlarini tikladilar. Masalan, Batumi nomi - Muhayyir nomiga, Gruzinskaya nomi – Chamanzor nomiga, Dnepropetrovskaya nomi – Beruniy nomiga, Injenernaya nomi – Sakkokiy nomiga, Shastri ko‘chasining nomi – Ahmad Farg‘oniy nomiga, Fruktoavaya ko‘chasi - G‘iyosiddin Jamshid nomiga almashtirilgan [4; 186-187].

Qo‘qon shahrida toponimik o‘zgarishlar uchun bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatgan, shulardan biri bu shahar taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan shaxslarning nomini abadiylashtirish uchun qilingan o‘garishlar tashkil etadi. Shunday insonlardan biri bu jadidchilik harakatining yirik namoyondasi, Farg‘ona vodiysida matbaachilik va matbuotiga asos slogan ma’rifatparvar davlat arbobi, mustaqillik harakatining eng faol ishtirokchilaridan biri, shu bilan birgalikda dastlabki o‘zbek geologi va kon sanoati muhandisi sifatida nafaqat shahar balki, O‘zbekiston tarixida sezilarli iz qoldirgan Obidjon Mahmudovdir.

Obidjon Mahmudov nomini abadiylashtirish maqsadida 2000-yil 11-yanvar kuni Qo‘qon shahar hokimligi huzuridagi toponimik komissiyaning yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Qo‘qon shahrida joylashgan 1-Sharq ko‘chasining nomini Obidjon Mahmudov nomiga o‘zgartirish taklifi

bilan chiqqan “Yog‘ bozori” mahallasi tashabbusi ko‘rib chiqildi va mahalla tashabbusi qanoatlaniriladi [5; 209]. Ushbu komissiya qarorini ijro etilishi yuzasidan Qo‘qon shahri hokimi A.Xo‘jayevning 28-sonli qarori 2000-yil 26-yanvar kuni qabul qilingan. Qarorda 1-Sharq ko‘chasining nomini Obidjon Mahmudov nomiga almashtirish bilan birgalikda, u dafn etilgan “Shayhon” qabristonidagi qabriga yodgorlik lavhasi o‘rnatilishi ham belgilab berildi [5; 208].

Yana bir misolni keltirib o‘tsak, shunday insonlardan biri asli qo‘qonlik Tarix fanlari doktori, akademik marhum Rahima Xodiyevna Aminovadir. Rahima Aminova nomini abadiylashtirish tashabbusi bilan 60-Usta bozor nomli mahalla fuqarolar yig‘ini aholisining tashabbusi 2003-yil 18-fevral kuni Qo‘qon shahar toponimik komissiyasining yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, tashabbus qo‘llab-quvvatlanadi [6; 5]. Toponimik komissiya qarori yuzasidan II chaqiriq Xalq deputatlari Qo‘qon shahar Kengashining qarori 2003-yil 19-fevral kuni qabul qilingan bo‘lib, qaror asosida Rahima Aminova nomini abadiylashtirish bo‘yicha 60-Usta bozor mahalla fuqarolar yig‘ini taklifi qo‘llab quvvatlanib, Jahonobod ko‘chasiga Rahima Aminova nomini berish taklifi ma‘qullandi [6; 4]. Ushbu qaror ijrosini ta‘minlash uchun Qo‘qon shahar hokimining 46-sonli qarori 2004-yil 6-fevral kuni qabul qilingan [7; 25].

Farg‘ona viloyati hokimligi Toponimik ob‘yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi komissiyasining 2005-yil 29-aprel kuni yig‘ilish qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy hokimiyat” to‘g‘risidagi qonunning 6, 25-moddalari va “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 19, 20, 21-moddalariga asosan Qo‘qon shahar hokimining 13-iyun 2005-yilda 208-sonli “Shahardagi ayrim ko‘chalarga nom berish haqida”gi qarori qabul qilindi [8; 62]. Unga ko‘ra quyidagi toponimik o‘zgarishlar amalga oshirilgan:

2-jadval.

Qo‘qon shahridagi ayrim ko‘chalarga nom berish haqida qarori yuzasidan nomi o‘zgartirilgan ko‘chalar ro‘yhati. (13.06.2005, №208) [8; 62].

T/R	MFY nomi	Eski nomi	Yangi nomi
1	43 - Navbahor	Loyihaviy – 1	Bayt qo‘rg‘on
2	45 - A.Zohiriy	Loyihaviy – 1	Langar
3	45 - A.Zohiriy	Loyihaviy – 2	Armug‘on
4	45 - A.Zohiriy	Loyihaviy – 3	Mahmudxo‘ja Behbudiy
5	58 - A.Ikromov	Loyihaviy – 1	Chillabuloq

Yuqoridagi jadval berilgan nomlar asosan yangi tashkil etilgan Loyihaviy ko‘chalarga berilgan bo‘lib, ushbu ko‘chalar birinchi marta nomlangan. Shu sababli ham bunday ko‘chalar nom berilganidan keyin ularni huquqiy jihatdan shakllantirish boshqa nomlarni qayta ro‘yhatdan o‘tkazishga nisbatan yengilroq kechadi.

Qo‘qon shahar hokimi M.A.Usmonovning 2006-yil 5-apreldagi 39-f sonli “Shahardagi toponimik ob‘yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyasi tarkibini qayta tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilingan [9; 15]. Ya‘ni shahardagi toponimik ob‘yektlarga nom berish masalalarini muvofiqlashtiruvchi shahar komissiyasi tarkibidagi bir necha xodimlarning boshqa ishga o‘tganligi munosabati bilan komissiya a‘zolari orasidan bo‘shab qolgan joylar boshqa tegishli soha vakillari bilan to‘ldirilgan. Odatda, hokimiyat tizimidagi ko‘plab komissiyalar tarkibidagi xodimlar boshqa ishga o‘tishi munosabati bilan komissiya tarkibidan chiqariladi va o‘rniga shu sohaga aloqador bo‘lgan boshqa shaxslar bilan to‘ldirib, komissiya tarkibi yangilanadi.

2006-yilda tuzilgan komissiya tarkibi jami 17 nafar a‘zodan iborat bo‘lib, komissiya raisi Qo‘qon shahar hokimi (M.A.Usmonov) hisobalanadi. “Ma‘naviyat va ma‘rifat” Markazi shahar kengashi bo‘limi boshlig‘i esa komissiya kotibi vazifasini bajargan (I.Madrahimov) [9; 16]. Shuningdek, komissiya tarkibida, Statistika bo‘limi boshlig‘i – S.Sodiqov, O‘lkashunoslik muzeyi ilmiy hodimi – Ya.Dadaboyev, Pedagogika instituti, filologiya kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi – N.Oxunov, “Qo‘qon sadosi” ro‘znomasi muharriri – R.Otajonov, shahar yer resurslari va davlat Kadastr bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari – A.Islomov, kommunal xo‘jalik boshqarmasi boshlig‘i – I.Xasanov va boshqalar joy olgan [9; 16].

Shahar toponimik komissiyasi tomonidan nafaqat ko‘cha nomlari balki mahalla fuqarolari yig‘inlarining nomlari ham almashtirish holatlari kuzatilgan. Masalan, Respublika toponimik komissiyasining 2010-yil 13-sentabrdagi 07-5-30 sonli bayoni qaroriga asosan 58-“Akmal Ikromov” nomli MFY nomini Bunyodkor, 40-“Mirzo Ulug‘bek” nomli MFY nomini Nurafshon nomi bilan almashtirilgan [10; 155]. Yuqorida nomlari keltirilgan ozgarishlarni amaliyotga joriy qilish uchun asos bo‘lgan Qo‘qon shahri hokimining 344-sonli qarori 2010-yilning 27-sentabrda qabul qilingan [10; 155]. Aynan shu qarorda avval qabul qilinganlaridan farqli ravishda shaxs nomlariga qo‘yilgan ko‘cha va joy nomlari boshqalariga almashtirilishini ko‘rishimiz mumkin. Ya‘ni asosiy o‘zgarishlar kishi nomlari bilan bog‘liq ko‘chalar bilan bog‘liqligini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

3-jadval.

Qo‘qon shahri hududidagi II guruhga kiruvchi ko‘chalarga yangi nom berish to‘g‘risida qarori yuzasidan nomi o‘zgartirilgan ko‘chalar ro‘yhati. (27.09.2010, №344) [10; 155-158].

T/R	MFY nomi	Eski nomi	Yangi nomi
1	G‘ishtli masjid	Nazirjon Xalilov	Eskirabot
2	To‘g‘onboshi	Abdurahmon Mamayusupov	Gulshan
3	Temiryo‘lchi	G‘iyosiddin Jamshid	Temirchilik
4	Qalandarxona	Badriddin Baxtiyorov	Binokor
5	Noib ko‘prigi	Adham Rahmat	Dilkash

6	Tolzor	Mahmud Mallayev	Toshhovuz
7	Achchiqko‘l	Nishon Rizayev	Xalqobod
8	Saodat	Usmon Yusupov	Bodomzor
9	Arziqtepa	General Zokirov	Sariqamish
10	Sunbula	Muhammadjon Holiqiy	Dongdor

Yuqoridagi jadvallarga qo‘shimcha sifatida yana 50 dan ortiq MFYlar tarkibidagi shaxs nomlari bilan bog‘liq ko‘chalar nomlari boshqa hududning tarixiy o‘tmishi, kelib chiqishi, tabiati va kasb-hunarlariga mos bo‘lgan nomlarga almashtirilgan.

### XULOSA

Maqola davomida keltirilgan ma’lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, mustaqillik yillarida toponimika sohasida amalga oshirilgan ishlar ayniqsa Qo‘qon shahrida olib borilgan o‘zgarishlar e’tiborga molikdir. Qo‘qon shahri o‘zining o‘tmishi va tarixda tutgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o‘rniga nisbatan nafaqat vodiy, balki respublikamizdagi shaharlar ichida ham ajralib turadi. Yaqin yillarda ham shahar hududida toponimika sohasida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘payib bormoqda, bunga eng asosiy sabab esa shahar hududining qo‘shni tumanlar hisobiga kengayib borishi sabab bo‘ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Farg‘ona viloyati davlat arxivi. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 74-yig‘ma jild.
2. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 94-yig‘ma jild.
3. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 110-yig‘ma jild.
4. FVDA. 1230-fond, 1-ro‘yhat, 112-yig‘ma jild.
5. FVDA. 1230-fond, 2-ro‘yhat, 20-yig‘ma jild.
6. FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yhat, 1-yig‘ma jild
7. FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yhat, 27-yig‘ma jild
8. FVDA. 1230-fond, 4-ro‘yhat, 47-yig‘ma jild
9. FVDA. 1230-fond, 5-ro‘yhat, 9-yig‘ma jild
10. FVDA. 1230-fond, 5-ro‘yhat, 73-yig‘ma jild